

SINXRON TARJIMA VA UNING KELIB CHIQISHI BO‘YICHA NAZARIYALAR

Shonazarova Dilnoza Dilshod qizi

Xalqaro Nordik Universiteti

Chet tillari kafedrasi

d.shonazarova@nordicuniversity.org

ANNOTATSIYA

Ushbu tadqiqot ishi sinxron tarjima tarixi, uning paydo bo‘lishi, asl sinxron tarjima, ya’ni sinxron tarjimon qobiliyatini ishlatgan holda amalga oshiriladigan tarjima kelib chiqishi bo‘yicha nazariyalarни tahlil ostiga oladi hamda bu masala bo‘yicha ba’zi takliflar va nazariyalar xronologik ketma-ketlik asosida berib o‘tiladi. Shuningdek, maqolada sinxron tarjima tarixi bo‘yicha sharq va g’arb olimlarining fikrlari, Nyurnberg sudining sinxron tarjimada tutgan o‘rnini ham tahlil ostiga olinadi. Tadqiqot ishi nazariy metod asosida yoritilgan. Tadqiqot so‘nggida sinxron tarjima tarixi bo‘yicha nazariy bilimlarga ega bo‘lish mumkin.

Kalit so‘zlar: Sinxron tarjima, tarjima tarixi, Nyurnberg sudi, og‘zaki tarjima, ketma-ket tarjima, yozma tarjima, konferensiya, jihozlar, nutq, xronologiya, stenografiya.

KIRISH

Insoniyat paydo bo‘libdiki, turli xalqlar bir-biri bilan muloqot qilishga, fikr almashishga, suhbatlashishga intiladi. Yer sayyorasi ulkan, shu sababli insonlar turli hududlarda istiqomat qilishadi va ularning so‘zlashuv tili ham turlichadir. Bugungi kunda kurayi zaminda taxminan 5621 ta til va sheva mavjuddir. Dunyoda shunchalik ko‘p til mavjud ekanki, ushbu til vakillari bir-birlari bilan muloqot qilishlariga to‘g‘ri keladi. Buning uchun esa insoniyatda tarjimaga ehtiyoj tug‘ilgan. Shu bilan birga avvalambor, bebahohi ne’mat sanalgan tilda tarjima ham yuzaga kelgan. Undan so‘ng esa ma’lum bir davr o‘tgach sinxron tarjimaga ehtiyoj tug‘ildi. Sinxron tarjima og‘zaki tarjimanining bir turi bo‘lib, bu turdag‘i tarjima tarixini boshqalaridan butunlay ajratish mumkin bo‘lmasa-da, aynan sinxron tarjima tarixi bo‘yicha berib o‘tilgan ma’lumotlar biroz chalkashroq.

Ko‘p manbalarda sinxron tarjima Nyurnberg sudi jarayonida, ya’ni XX asr o‘rtalarida paydo bo‘lgan degan ma’lumot beriladi. Ko‘pchilik G‘arb tarjimonlari va tilshunoslari sinxron tarjima paydo bo‘lishini Nyurnberg sudiga borib taqaladi deydi, aksariyat rus manbalarda esa undan deyarli 20 yil oldin paydo bo‘lgani ta’kidlanadi. Kril Flerov shunday deydi: “Sinxron tarjima Nyurnberg sudiga qadar ham ishlatilgan, shunchaki bu davrga tegishli ba’zi ma’lumotlar bir-birini zid qiladi, ba’zilari esa to‘liq emas. Sinxron tarjimanining “rasmiy” tug‘ilishi esa,

Nyurnberg sudiga borib taqaladi.”¹ Shunday qilib, o‘rganilgan manbalardan xulosa chiqaradigan bo‘lsak, sinxron tarjima paydo bo‘lish tarixi quyidagi ketma-ketlikda amalga oshgan.

Amerikalik tadbirkor va filantrop Edvard Filene 1925-yil 2-aprelda Millatlar Ligasida sinxron tarjimadan foydalanish g‘oyasi bilan chiqdi. Filene kengashda o‘sha kuni E.Drummondga xat yozib, ishning sifatini ta’minlashda aynan yuqori sifatli mikrofon so‘zlovchining nutqini yozib olish uchun eng qulay sharoitda bo‘lishini, unga yaqin bo‘lgan joyga o‘rnatalishini ta’kidlaydi. Ushbu mikrofondan yozib olingan ovoz esa uzatgich orqali yaqin atrofda joylashgan tinch xonadagi quloqchinga yetkazib berilishiga ishontiradi. Har bir tarjimon kabinasi alohida quloqchin bilan ta’minlanishi, tarjimon kabinasi oddiy stol va yuqori sifatli ovoz yozuvchi mikrofon bilan jihozlangan holatda bo‘lishi lozimligini qayd etadi. Ushbu mikrofon esa, majlislar zali yoki xonadagi maxsus uskunalarga ulangan bo‘ladi. Tarjima jarayoni nutq so‘zlanishi bilan bir paytda amalga oshiriladi. Bir necha manbalarda sinxron tarjima uchun tavsija etilgan texnologiya esa “Hushaphone” deb atalishi ta’kidlanadi. Masalan, ushbu nom 1955-yilda Jeneva universitetida ma’ruza jarayonida Andre Kaminker tomonidan tilga olingani aytildi.² Filenening o‘zi muhandis bo‘lmagani sababli, u ushbu jarayonga o‘sha paytda Jnevada ishlayotgan britaniyalik muhandis A.Gordon-Finlay (odatda Gordon Finlay, Finley va Findlay tarzida yanglish talaffuz qilinadi) ni jalb qiladi. Ular tizimni o‘rnatish uchun mavjud telefon jihozidan foydalanishadi, shuning uchun ham dastlab u telefon tarjimasi (telephonic interpretation) deb nomlana boshlangan. Aslida esa ushbu tizimni “Filene-Finlay sinxron tarjimoni” (the Filene-Finlay simultaneous translator) deb nomlashgan.

Filene avvaliga tizimni rivojlantirish uchun Amerika transmilliy telekommunikatsiya holding kompaniyasi (AT&T- *American multinational telecommunications holding company*) ga murojaat qiladi va ulardan rad javobi oladi. Keyinchalik Xalqaro biznes mashinalari korporatsiyasi (IBM-International Business Machines Corporation-keyingi o‘rinlarda IBM) ushbu mas‘uliyatni o‘z zimmasiga olib, kompaniya asoschisi Tomas Vatson ko‘magida tizimni yanada rivojlantiradi. Tomas Vatsonning 1945-yil maktubida keltirilishicha IBM tizimi “Xalqaro tarjimon tizimi” deb atalishi aynan ushbu muallifga tegishli bo‘lib, keyinchalik boshqa hech kim uni o‘z nutqida qo‘llanmagan. Aslida 1926-yildagi tizim patenti “IBM Hushaphone Filene-Findlay (sic) system” nomi ostida berilgan. Hamkasblari mahsulotdan yetarlicha foyda kelmasligini ta’kidlashsa ham Tomas Vatson bu ixtironi qo‘llab quvvatlaydi, ixtirochilarga esa oz miqdorda haq to‘laydi. Filene va Gordon-Finlay foydalangan Hushaphone (Hush-a-Phone, Hush a Phone ham deb ataladi) moslamasiga keladigan bo‘lsak, ushbu moslama, tizim ixtiro qilinishidan oldin ham mavjud bo‘lgan va ular tayyor moslamadan ishlarining bir qismi sifatida foydalanishgan. Dr. Ritterning ta’kidlashicha, Hushaphone nutqni uzatib berish maqsadida foydalilanigan bo‘lib, 1921-yilda Hush-a-Phone kompaniyasi (1920) tomonidan patentlangan va o‘sha davrgacha foydalanib kelingan. Mavjud telefon moslamasidan foydalanishgani sababli Filene va Gordon-Finlay buni to‘liq o‘zlarining ixtirosi sifatida ta’kidlay olmasdilar. Bundan ko‘rinadiki, ushbu moslama nomini tizimning bir qismi sifatida saqlab qolishlariga to‘g‘ri kelgan.

Gofman esa sinxron tarjimada kabinetalar va quloqchinlar, ya’ni sinxron tarjima jarayonida birinchi bo‘lib 1933-yil, Kominternning ijro etuvchi 13-yalpi majlisida ishlatilgan, deya

¹ Flerov, C. (2013). On Comintern and Hush-a-Phone: Early history of simultaneous interpretation equipment. *AIIC [en línea]*.

² Flerov, C. (2013). On Comintern and Hush-a-Phone: Early history of simultaneous interpretation equipment. *AIIC [en línea]*.

ta'kidlaydi.³ Xuddi shunga o'xshash fikrni I.G'afurov, O.Mo'minov, N. Qambarovlarning "Tarjima nazariyasi" kitobida ham uchratishimiz mumkin. Unda quyidagi fikrlar keltirilgan: "Ilk sinxron tarjima tajribasi 1928-yilda VI Komintern Kongressida bo'lib o'tgan. O'sha davrda telefonlar mavjud bo'lмаган. So'zlovchining nutqi to'g'ridan to'g'ri tarjimonning qulqlariga yetib borar edi. Ilk kabina va qulqchinlar 1933-yil Kominternning ijob etuvchi 13-yalpi majlisida paydo bo'lган"⁴. Kril Flerov esa sinxron tarjima ilk bor XX asr boshida ishlatilgan degan fikrga qisman qo'shilmaydi. Uning aytishicha, sinxron tarjima *chuchotage* (whispering), ya'ni shivirlab tarjima qilish mavjud bo'lган ondan boshlab mavjud bo'lган. U shivirlab tarjima qilish haqida quyidagi hikoyani yodga oladi: "Bir necha asrlar oldin Dalai Lamaga tashrif buyurgan eng dastlabki tarjimonlardan biri, o'z ishining shunchalik ustasi ediki, Dalai Lamaning qulog'iiga to'xtovsiz pichirlab tarjima qilib berib turardi"⁵. Ishlash tamoyili va nevrolingvistik jarayon nuqtai nazaridan qaralganda shivirlab tarjima qilish (*chuchotage*) va sinxron tarjima o'rtasida deyarli farq kuzatilmaydi. Asosiy farq sinxron tarjimonning kabinada bo'lishi va o'zi chiqarayotgan ovoz darajasini nazorat qilishda qiyalmay, charchoq hissi kamroq bo'lishi va albatta, ish samaradorligidadir. Bizning nuqtai nazarimizda, Kril Flerov maxsus uskunalar yordamida sinxron tarjima XX asrda paydo bo'lган deya, izoh beradi.

Demak, yuqorida keltirilgan talay ma'lumotlar va adabiyotlarga tayanib shuni qayd etish lozimki, sinxron tarjima paydo bo'lishini quyidagi ketma-ketlikda izohlash mumkin (ba'zi ma'lumotlar taxminiy faktlarga asoslangan):

1920-yil: Xalqaro biznes mashinalari korporatsiyasi (IBM-International Business Machines Corporation) "Xalqaro tarjima tizimi" xalqaro savdo palatasida ishlatilgan (tashkilotning 1945-yilgi xatiga ko'ra, xato va kamchiliklar bo'lishi mumkin).

1920-yil: Hush-a-Phone korporatsiyasi tashkil qilingan.

1921-yil: Hush-a-Phone qurilmasi patentlangan.

Taxminan 1922-yil: "Xalqaro tarjima tizimi" Vashingtonda bo'lib o'tgan IV Panamerika konferensiyasida foydalanilgan (IBM tashkilotining 1945-yilgi xatiga ko'ra, xato bo'lishi mumkin).

1925-yil (2 aprel): E.Filenening ser E.Drummondga maktubida sinxron tarjima tushunchasini ilk bor ta'kidlaydi.

1926-yil (27-noyabr): G.Fleury dekabr oyida boshlanadigan 4-6 haftalik "yetkazib beruvchi moslamalar orqali tarjima" tayyorlov kursini e'lon qiladi va 1927-yil aprel oyigacha 24 talaba kursni davom ettirish uchun tanlab olinishini e'lon qiladi.

1926-27-yillar: Andre Kaminkerning Jeneva universitetidagi ma'rzasiga ko'ra, sinxron tarjima tizimi tuzib chiqiladi⁶.

1927-yil (4-iyun, soat 10:30): Sinxron tarjima tizimi (IBM xabariga ko'ra) birinchi marta Millatlar Ligasi Xalqaro Mehnat Konferensiyasida qo'llanilgan⁷. Shunga qaramay, Miriam Sheron ushbu Jeneva konferensiyasida Filene-Finlay tizimidan faqatgina tayyor oldindan tarjima qilingan matnlarni sinxron ravishda o'qib berish uchun foydalanilgan deydi⁸. Xulosa qilib aytish

³ Гофман, Е. А. (1963). К истории синхронного перевода. *Темради переводчика*, (1), 21-26.

⁴ G'afurov, I., Mo'minov, O., & Qambarov, N. (2012). Tarjima nazariyasi. T.: Tafakkur.

⁵ Flerov, C. (2013). On Comintern and Hush-a-Phone: Early history of simultaneous interpretation equipment. *AICC [en línea]*.

⁶ Gaiba, F. (1998). *The origins of simultaneous interpretation: The Nuremberg Trial*. University of Ottawa Press.

⁷ Taylor-Bouladon, V. (2011). *Conference interpreting: Principles and practice*. [Crawford House Publishing].

⁸ Sharon, M. (2004). „A Review of the Use of Simultaneous Interpretation in War Crime Tribunals.”.

mumkinki, bu davrda birinchi marta sinxron tarjimadan emas, balki sinxron tarjima jihozlaridan foydalanilgan.

1927-yil (20-iyul): A. Gordon-Finlay o‘z hisobotida shunday yozadi: “Tajribalar shuni ko‘rsatdiki, bu ish murakkab va o‘ziga xos qobiliyatni talab qiladi. Tarjimonlarning bir qismi va ayniqsa, bu ish ortiqcha diqqat talab qilganligi uchun charchab qoldi. Jarayonda konferensiya tomonidan qo‘srimcha haq to‘lab, ularni qo‘llab-quvvatlab yordam berib turish uchun yordamchi tarjimonlarni olib kelish maqsadga muvofiqdir⁹.

1927 yil (avgust): Millatlar Ligasi yangiliklarida “elektron moslamalardan foydalanuvchi tarjimon” tushunchasi tilga olindi.

1928-yil: Sinxron tarjima Kominternning VI Kongressida, SSSRda qo‘llanilgan¹⁰.

1929-yil (14-may): Konferensiyaning 13-sessiyasida 1928-yilda XMT (Xalqaro mehnat tashkiloti) da sinxron tarjimonlik bo‘yicha eksperiment direktorining ma’ruzasida shunday deyilgan: “Sinxron tarjimonning o‘rtacha o‘ttiz daqiqalik ketma-ket ish faoliyati qoniqarli ekanligi isbotlandi, undan so‘ng davom ettirilgan tarjima miyadagi toliqish evaziga sifatsiz bo‘lishi mumkin”¹¹.

1929-yil: Sinxron tarjima Jenevadagi ilmiy-tashkiliy qo‘mitada ishlatilgan.

1929-yil: Sinxron tarjima Amsterdamdagi Xalqaro Savdo Palatasida ishlatilgan

1930-yil: “Siemens & Halske SI” tizimi Berlindagi energiya bo‘yicha xalqaro konferensiyada ishlatilgan¹².

1933-yil: Sinxron tarjima kabinetlari va tarjimon uskunalari birinchi marta Komintern Ijroiya qo‘mitasining XIII sessiyasida ishlatilgan¹³;

1934-yil: Kaminker o‘zining “sinxron tarjima tizimi”ni ishlab chiqdi va Gitlerning Nyurnbergdagi nutqini fransuz radiosini uchun o‘sha paytning o‘zida sinxron sharhladi.¹⁴;

1935-yil: SSSRning Leningrad shahridagi XV Xalqaro fiziologiya kongressida ishlatildi. Akademik Ivan Pavlovning ochilish nutqi rus tilidan fransuz, ingliz va nemis tillariga sinxron tarjima qilingan. Simli ularsh tizimi ishlatilgan hamda delegatlarga uskunadan foydalanish bo‘yicha ko‘rsatmalar berilgan.¹⁵;

1935-yil: Belgiya parlamentida sinxron tarjima ikki tilda (fransuz va flamand) joriy etildi. Ba’zi manbalarda 1936-yil deb ta’kidlangan;

1936-yil: Sinxron tarjima Gollandiyaning Scheveningen shahrida ishlatilgan;

1944-yil: Sinxron tarjimadan Filadelfiyadagi konferensiyada foydalanilgan;

⁹ Baigorri-Jalón, J., & Travieso-Rodríguez, C. (2017). Interpreting at the United Nations: the impact of external variables. The Interpreters’ View. *CLINA: An Interdisciplinary Journal of Translation, Interpreting and Intercultural Communication*3 (2), 53-72.

¹⁰ Гофман, Е. А. (1963). К истории синхронного перевода. *Темради переводчика*, (1), 21-26.

¹¹ Baigorri-Jalón, J., & Travieso-Rodríguez, C. (2017). Interpreting at the United Nations: the impact of external variables. The Interpreters’ View. *CLINA: An Interdisciplinary Journal of Translation, Interpreting and Intercultural Communication*3 (2), 53-72.

¹² Gaiba, F. (1998). *The origins of simultaneous interpretation: The Nuremberg Trial*. University of Ottawa Press.

¹³ Гофман, Е. А. (1963). К истории синхронного перевода. *Темради переводчика*, (1), 21-26.

¹⁴ Gaiba, F. (1998). *The origins of simultaneous interpretation: The Nuremberg Trial*. University of Ottawa Press.

Taylor Bouladon V. Conference Interpreting: Principles and Practice. - Booksurge Publishing, 2007.- p 16

¹⁵ Гофман, Е. А. (1963). К истории синхронного перевода. *Темради переводчика*, (1), 21-26.

1945-1946-yillar: Nyurnberg sudi jarayonida ishlatilgan.

Yuqoridagi xronologiyaga qaraydigan bo‘lsak, Nyurnberg sudida ishlatilgan sinxron tarjima ro‘yxatning so‘nggida turibdi. Lekin shunga qaramay, sinxron tarjima tarixi ko‘pchilik manbalarda aynan mana shu sud bilan bog‘lanadi. Chunki, aynan mana shu yilda va mana shu sudda turli davlat vakillari yig‘ilganligi, sud jarayonidagi nutq oldindan tarjima qilib bo‘lmasligi hamda sinxron tarzda o‘qib berishni iloji yo‘qligi, ko‘plab til juftligida ishlanganligi hamda sinxron tarjima uskunalaridan, sinxron tarjima qilish malakalaridan tom ma’noda foydalanilganligini inobatga olsak, bugungi kunda biz tushungan sinxron tarjima aynan mana shu sud jarayonida ishlatilgan. Garchi, ba’zi rus va o‘zbek manbalarida Nyurnberg sudi sinxron tarjimaning boshlang‘ich nuqtasi sifatida ta’kidlanmasa-da, boshqa ko‘plab Yevropa mamlakatlari tadqiqotchilari aynan ushbu yilni sinxron tarjima ibtidosi deya tan olishadi.

XULOSA

Yuqorida ta’kidlangan fikrlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, sinxron tarjimaning paydo bo‘lishiga oid ba’zi nazariyalar hali ham bir-birini zid etadi. Ma’lum bir nazariyalar esa shunchaki mavjud, ularni faktlar asosida isbotlashning esa iloji yo‘q. Demak, sinxron tarjimaning nazariy jihatdan paydo bo‘lishini ba’zi olimlarning fikriga ko‘ra chuchotage, ya’ni shivirlab tarjima qilish paydo bo‘lishi bilan ham bog‘lasa bo‘ladi. Uning texnik jihatdan, aniqrog‘i, aynan sinxron tarjima uskunalaridan foydalanilgan holda paydo bo‘lishi esa ba’zi manbalarga ko‘ra 1927-yildagi Millatlar Ligasi Xalqaro Mehnat Konferensiyasiga, ba’zi manbalarda esa 1928-yildagi VI Komintern Kongressiga bog‘lanadi. Lekin bu jarayonda tarjimonlar haqiqiy sinxron tarjima jarayonini amalga oshirishmagan. Ular berilgan nutqni oldindan tarjima qilib, sinxron tarjima uskunalaridan foydalanib, sinxron tarzda o‘qib berishgan. Haqiqiy sinxron tarjima 1945-yil 1-noyabrda Nyurnberg sud jarayonida tug‘ilgan. Chunki shu kuni tarjima jarayonida nafaqat sinxron tarjima uskunalaridan foydalanilgan, balki jarayon to‘liq sinxron ravishda amalga oshirilgan. Tarjimonlarga oldindan hech qanday nutq oldindan tarjima qilishga berilmagan. Chunki sud jarayonida chaqirilgan guvohlar, ayblanuvchilar, qoralovchi, oqlovchi advokatlarning, sudyaning va boshqa vakillarning nutqlari vaziyatga qarab turlicha o‘zgarib boravergan. Nyurnberg ishi uchun dastlabki sinxron tarjimonlar guruhini topish, ularni tayyorlash oson bo‘lmagan. Tarjimonlar ham anchagina katta bosim ostida ishlashga majbur bo‘lishgan. Shu zaylda, sinxron tarjima paydo bo‘lib, sinovdan muvaffaqiyatli o‘tgandan so‘ng, dunyo miqyosida deyarli barcha xalqaro konferensiya va uchrashuvlarda keng foydalanilgan. Hozirgi kunda yirik xalqaro tashkilotlarning o‘z sinxron tarjimon guruhlari mavjud va bunday tarjimonlar maxsus tayyorgarlikdan o‘tishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Baigorri-Jalón, J., & Travieso-Rodríguez, C. (2017). Interpreting at the United Nations: the impact of external variables. *The Interpreters’ View. CLINA: An Interdisciplinary Journal of Translation, Interpreting and Intercultural Communication*3 (2), 53-72.
2. Flerov, C. (2013). On Comintern and Hush-a-Phone: Early history of simultaneous interpretation equipment. *AIIC [en línea]*.
3. Gaiba, F. (1998). *The origins of simultaneous interpretation: The Nuremberg Trial*. University of Ottawa Press.

4. Taylor-Bouladon, V. (2011). *Conference interpreting: Principles and practice*. [Crawford House Publishing].
5. G'afurov, I., Mo'minov, O., & Qambarov, N. (2012). Tarjima nazariyasi. T.: *Tafakkur*.
6. Sharon, M. (2004). „*A Review of the Use of Simultaneous Interpretation in War Crime Tribunals*.”
7. Shonazarova, D. SINXRON TARJIMA AMALIYOTI VA NAZARIYASI. *UZBEKISTAN*, 43.
8. Гофман, Е. А. (1963). К истории синхронного перевода. *Тетради переводчика*, (1), 21-26.